

O`RTA OSIYO DAVLATLARIDA RIVOJLANISH

Norboboyeva Jasmina Norbobo qizi

Iqtisodiyot va Pedagogika unversiteti tarix fakulteti talabasi

norboboyevajasmina717@gmail.com

ANNOTATSIYA: Ushbu maqolada Markaziy Osiyo xalqlari madaniyati tarixi, rivojlanishi xususida soʻz boradi .

Kalit soʻzlar: Madaniyat ,tarix ,madaniy svilizatsiya ,rivojlanish,ta`lim,tarbiya.

АННОТАЦИЯ: В данной статье рассматривается история и развитие культуры народов Средней Азии.

Ключевые слова: Культура, история, культурная цивилизация, развитие, образование, воспитание.

ABSTRACT: This article examines the history and development of the culture of the peoples of Central Asia.

Key words: Culture, history, cultural civilization, development, education, upbringing.

O`rta Osiyo — Yevrosiyo materigining o`rta qismida, g`arbda Kaspiy dengizi qirg'oqlaridan sharqda Xitoy chegarasigacha, shimolida G`arbiy Sibir tekisligidan, janubida Nishopur, Safedko`h va Hindukush tog`larigacha cho`zilgan yirik tabiiy geografik o`lka. U materik ichkarisida, Atlantika okeanidan 4 ming km, Shimoliy Muz okeanidan 2,5 ming km, Tinch okeanidan 5,5 ming km va Hind okeanidan 1 ming km ga yaqin masofada joylashgan, suvlari okeanlarga chiqib keta olmaydigan berk havzadan iborat. O`rta Osiyo hududi o`rta asrlarda, Turon arab manbalarida Movarounnahr, 19-asrning 2-yarmi va 20-asr boshlarida (1924—25 yillarda o`tkazilgan milliy davlat chegaralanishigacha) Turkiston deb atalgan, keyinchalik O`rta Osiyo deb ataladigan bo`ldi. O`rta Osiyo yirik geosistema sifatida (maydoni 3300 ming km²chamasida) Qozog`istonning kattagina qismini, O`zbekiston, Qirg`iziston, Tojikiston, Turkmaniston, qisman Xitoy hududlari hamda Afg`oniston va Eronning Amudaryo havzasiga qarashli qismini o`z ichiga oladi. O`rta Osiyoning qo`shni tabiiy o`lkalaridan farqlantirib turuvchi o`ziga xos bir qancha belgilari mavjud. Bular:

- 1) Yevrosiyo materigida tutgan o`rnining o`ziga xosligi, ya`ni materikning ichkarisida, okeanlardan uzoqdan joylashganligi;
- 2) o`lkaning berk havzadan iborat ekanligi, ya`ni bu yerda shakllangan asosiy oqimning tashqi dengiz, okeanlarga chiqib keta olmasligi va o`lkaning eroziya bazisi hisoblangan Kaspiy, Orol, Balxash, Issiqko`l kabi ichki havzalarga quyilishi;
- 3) Yer yuzasining o`ziga xosligi, ya`ni o`lkaning shim., shimoli-g`arbiy katta qismi tekisliklardan, sharqiy va janubiy qismi tog`liklardan iboratligi;

- 4) tabiiy sharoitida ichki tafovutlarning kattaligi, ya'ni tabiatining barcha komponentlari o'lkaning turli qismlarida keskin farq qilishi;
- 5) o'ziga xos gorizontal tabiiy zonalarining mavjudligi va ularga mos balandlik mintaqalarining rivojlanganligidir. Bu o'lkada o'simliksiz ko'chma qumlar, o'tish qiyin bo'lgan chakalakzor o'rmonlar, ekinzor va bog'lardan iborat vohalarni ko'rish mumkin;
- 6) ekologik sharoitiga ko'ra ham berk o'lka, bu tabiatdan foydalanishda ehtiyotkorlikni talab etadi.

Ishlab chiqaruvchi kuchlarning rivojlanishi, shahar-qal'alarning paydo bo'lishi, yirik sug'orish va mudofaa inshootlarining qurilishi, siyosiy tashkilotlar - davlatlarning tarkib topishiga zamin yaratib beradi. Qadimgi fors va yunon manbalari eramizdan avvalgi VIII -VII asrlarda hozirgi Markaziy Osiyo hududida Baqtriya va Xorazm singari quldorlik davlatlari paydo bo'lganligi haqida xabar beradi. Persepol saroyidagi tosh qabrlarga bitilgan rasmlar, Naqshi Rostam darasidagi shoh Doro qabriga bitilgan bezakli tasvirlar, «Avesto», qadimgi yunon, rim va xitoy mualliflarining asarlarida hozirgi markaziy osiyoliklarning moddiy va ma'naviy madaniyati haqidagi muayyan ma'lumotlar berilgan. Temirni qayta ishlashning vujudga kelishi ajdodlarimizning eng katta kashfiyotlaridan biri edi. Temirdan mehnat qurollari yaratish jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy-madaniy hayotida tub burilishlar yasadi. Hozirgi o'zbek xalqining qadimgi davr madaniyati Markaziy Osiyoda yashovchi boshqa xalqlar madaniyati bilan chambarchas bogliq holda ravnaq topgan. Milliy madaniyatimizning rivojlanish jarayoniga e'tibor bersak, xalqimiz milliy ongining rivoji va umuminsoniy madaniyatlarning o'zaro ta'siri ostida ro'y berganligini ko'ramiz. Markaziy Osiyo xalqlari madaniyati rivojida «Buyuk ipakyo'li»ning roli benihoyat katta bo'lgan. Eramizdan avvalgi II ming yillikning oxiri va I ming yillikning boshlariga kelib, O'rta Osiyoda Baqtriya, So'g'diyona va Xorazm kabi madaniy jihatdan rivojlangan davlatlar paydo bo'ldi. Mazkur davlatlarning qadimgi davr madaniy taraqqiyoti boshqa bir qator xalqlar: Eron, Xitoy va Hind madaniyatlarining ta'siri ostida ro'y bergan. Masalan, taxminan eramizdan avvalgi I ming yillik o'rtalariga kelib Baqtriya Hindiston bilan bo'ladigan savdosotiqning asosiy markaziga aylandi. Savdo-sotiqning yuksalishi natijasida mustahkam qilib qurilgan qal'alar xalqning keng iste'mol va tashqi savdoga olib chiqiladigan mahsulotlar ishlab chiqaradigan iqtisodiy va madaniy markazlariga aylana boshladi. Yirik iqtisodiy markaz — shaharlarning vujudga kelib borishi uchinchi mehnat taqsimotining vujudga kelishiga sabab bo'ldi. Aleksandr Makedonskiyning Markaziy Osiyo hududlarini zabt etishi natijasida yunonlar bilan mahalliy xalqlar, Yevropa bilan Osiyo o'rtasida o'zaro iqtisodiy-madaniy aloqalar vujudga kelgan. Yunonlar osiyoliklarning madaniyatiga, osiyoliklar esa yunonlar madaniyatiga qiziqish bilan qaray boshlaganlar. Makedonskiy qo'shinlari bilan bosqinchilik va qirg'in urush dahshatlari kirib kelgan bo'lsa, shu bilan birga, o'ziga xos

yunon madaniyati ham kirib kelgan. Eramizdan avvalgi 1 ming yillikning o‘rtalaridan boshlab Markaziy Osiyo hududlariga turkiy qabilalarning tez-tez ko‘chib kelishlari natijasida, bu yerlarda turli xil tillarning shakllanish jarayoni ro‘y beradi. Masalan, eramizdan avvalgi III asrlarda Sirdaryo va Yettisuv cho‘llariga shimoldan xunlar ko‘chib kelib, o‘zlarining yirik qabila ittifoqini tashkil qiladilar. Ular Oltoy oilasining turkiy guruhiga kiruvchi tillarda so‘zlashganlar. Xunlar vaqt o‘tgach, so‘g‘diyonaliklar bilan chatishib ketganlar. Xuddi shu davrlarda Sirdaryoning o‘rta va quyi oqimida turkiy tilda so‘zlashuvchi etnik guruhlarning ta’siri kuchaya boradi. Turkiy tillar, ayniqsa, turk xoqonligi davrida (eramizning VI-VIII asrlari) Shimoliy Enasoy (Yenisey)dan Mo‘g‘ulistonga qadar cho‘zilgan keng hududlarda asosiy tillarga aylanadi. Xullas, Markaziy Osiyoning ko‘pgina hududlarida forsiy va turkiy xalqlar tillari vujudga kelgan. Bu tillarda so‘zlashuvchi turk etnik guruhlarning iqtisodiy madaniy aloqalari natijasida urf-odatlari, marosimlari, yashash tarzi, ma’naviy madaniyati bir-biriga o‘xshash bo‘lgan hozirgi Markaziy O‘rta osiyoliklarning qadimgi ajdodlari shakllangan.

REFERENCES

- 1.<http://www.teatr.uz>.
- 2.<http://www.bilim.uz>
- 3.<http://www.ziyo.edu.uz>
- 4.U.Qoraboyev ,G’.Soatov ”O‘zbekiston madaniyati”

